

YASHIL IQTISODIYOT

*Amrilloyev Aslon Anvar o'g'li*

*Iqtisodiyot universiteti MMT-96h guruh talabasi*

*A.B.Abdullaev*

*Ilmiy rahbar Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti*

*"Iqtisodiy tahlil" kafedrası Dotsenti*

**Kalit so'zlar:** Yashil iqtisodiyot, atrof-muhit, ekologiya, resurs, globallashuv...

Tobora rivojlanib borayotgan XXI asrda, ishlab chiqarish o'sib borgani sayin tabiiy-muhitning zararlanishi ham tobora ortib bormoqda. Atrof-muhitning ifloslanishi esa iqtisodiyotga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazmay qo'ymaydi. Chunki har qanday xom-ashyo va materiallar aynan tabiatdan olinishini inkor etib bo'lmaydi. Demak, bosh masala atrof-muhitni muhofaza qilish va cheklangan resurslardan unumdor foydalanish hisoblanyapti. Yashil iqtisodiyot esa aynan shu masalada o'zining hissasini qo'shib beradigan model bo'lib hisoblanadi. Bu iqtisodiyot isrofgarchilikni rag'barlantiradigan, resurslar tanqisligini keltirib chiqaradigan hamda atrof-muhit va inson salomatligiga keng tarqalgan tahdidlarni keltirib chiqaradigan bugungi hukmron iqtisodiyotga alternativ bo'ladi.

So'nggi yillar ichida "Yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi ko'plab hukumatlar uchun ustuvor vazifa sifatida paydo bo'ldi. "Yashil" o'sish indeksiga ko'ra, Shvetsiya, Daniya, Chexiya va Germaniya kabi mamlakatlar eng yuqori "yashil" o'sish ko'rsatkichlariga ega. Eng quyida esa Zimbabve, Jazoir, Nigeriya va Niger kabi Afrika mamlakatlari o'rin egallagan. MDH davlatlari ichida Gruziya, Markaziy Osiyo mintaqasida Qirg'iziston mazkur reyting bo'yicha yuqori o'rindagi ko'rsatkichlarni qayd etgan.

O'zbekiston Osiyo davlatlari ichida 33-o'rinda qayd etilgan.

Jumladan o'z qonunchiligimizda ham ushbu masalaga alohida urg'u berib o'tilgan. Avvalo O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 62-moddasida:

"Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar" hamda 123-moddasida:

"Viloyatlar, tumanlar, shaharlar hokimlarining vakolatlari quyidagilardan iborat: Viloyatlar, tumanlar, shaharlar hokimlarining vakolatlari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarini, Oliy Majlis palatalarining qarorlarini, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari hamda farmoyishlarini, Vazirlar Mahkamasining, yuqori turuvchi hokimlarning va tegishli xalq deputatlari Kengashlarining qarorlarini bajarish;

hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik jihatdan rivojlantirishni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish;

ushbu Konstitutsiya va qonunlarda nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshirish."

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son qarori bilan 2019–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi tasdiqlangan. O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotni ilgari surish va joriy etish bo'yicha vakolatli organ sifatida esa Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi belgilangan.

Bundan tashqari, YASHIL IQTISODIYOTni rivojlantirish to'grisida qonunlari ham mavjud:

- "Enegiyadan oqilona foydalanish" to'g'risida O'RQ-412

- Qayta tiklanuvchi energiya bo'yicha Xalqaro agentlik ustavini ratifikatsiya qilish bo'yicha O'RQ-532
  - Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida O'RQ-539
  - Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish davlat dasturi to'g'risida PQ-2731
  - "Zomin" turistik-rekreatsiyon zonasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida VMQ-254
- va shuning bilan boshqa qaror va dasturlar.

"Yashil" o'sish indeksi bo'yicha mamlakatimizning past ko'rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan quyidagi ustuvor yo'nalishlardagi ishlarni amalga oshirish belgilangan:

- iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlari energiya samaradorligini oshirish;
- energiya resurslari iste'molini diversifikatsiyalash va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish;
- iqlim o'zgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va tabiiy ekotizimlarni asrash;
- "yashil" iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashning moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqish.

Yuqoridagi ustuvor yo'nalishlar albatta jahon mamlakatlari tajribasidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Masalan, mamlakatlar miqyosida tahlil qilinganda, Germaniya iqtisodiyotning barcha sohalariga yashil tamoyillarni joriy etishda chiqindisiz ishlab chiqarish siklini yaratgan ushbu sohadagi ilg'or davlatlardan biridir. Germaniya chiqindilarni qayta ishlash hamda ulardan qayta foydalanish bo'yicha dunyoda yetakchi hisoblanadi. Germaniyada patentli texnologiyalarning 23 foizi atrof muhit sohasiga to'g'ri keladi va shamol, quyosh energetikasi sohasidagi kompaniyalarning 30 foizdan ortig'i nemis kompaniyalariga tegishli.

Agar ekologik innovatsiyalar sohasida qaraydigan bo'lsak, Shvetsiya tajribasi muhim ahamiyatga ega. Shvetsiya - qayta tiklanadigan energiya va mahalliy yoqilg'i manbalaridan foydalanish bo'yicha jahonda yetakchi mamlakat hisoblanadi. Yel universiteti olimlari tomonidan sayyoradagi "yashil" mamlakatlar ro'yxatini ishlab chiqilganda, Shvetsiya ushbu reytingda birinchi o'rinni egallagan. Bu davlatda maishiy chiqindilarning 96 foizi yo'q qilinadi, bu dunyodagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biridir. Qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tishda uy egalari soliq imtiyozlari beriladi.

Bular, albatta, mamlakat ekologiyasiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatuvchi qo'shimcha chora-tadbirlar guruhiga kiradi.

Mamlakatimizda aholi turmush darajasini oshirish, fuqarolarning dolzarb muammolarini hal etish, ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash va hududlarni rivojlantirish uchun munosib shart-sharoitlar yaratish maqsadida "aqli shahar" texnologiyalarini joriy etish kontseptsiyasi qo'llanilayotgani ham alohida ahamiyatli. Bu borada Koreya Respublikasining boy tajribasidan foydalanish ushbu maqsadlarda belgilangan milliy marralarni samarali amalga oshirish imkoniyatlarini yaratadi.

Prezidentimiz joriy yil boshida Seul shahrida videoanjuman shaklida bo'lib o'tgan "Yashil o'sish va global maqsadlar uchun hamkorlik — 2030" ikkinchi xalqaro sammitidagi nutqida "yashil" va barqaror taraqqiyotga xizmat qiladigan samarali qarorlar qabul qilish uchun xalqaro hamjamiyatning sa'y-harakatlarini birlashtirish zarurligini ta'kidlagan edi.

Xulosa qilib aytganda, bir vaqtlar oddiy tabiat hodisasi sifatida qaralgan iqlim o'zgarishlari bugun jahonda global tahdid tusiga kirdi. Hatto, dunyo hamjamiyati mazkur xavfni insoniyat oldida turgan eng jiddiy muammolardan biri, deya tan olmoqda. Unga qarshi o'z vaqtida chora ko'rmagan davlatlar esa iqlim o'zgarishlari yuzaga keltiradigan jiddiy oqibatlarga qarshi katta mablag'larni mobilizatsiya qilishlariga to'g'ri keladi. Uning oldini olish uchun "yashil iqtisodiyotga" o'tish - iqlim o'zgarishi, foydali qazilma minerallarning yo'qolishi va suv resurslarining tanqisligi kabi global tahdidlar xavfini kamaytiradi.

Demak hozirgi globallashuv sharoitida, nafaqat O'zbekiston, balki barcha mamlakatlar yashil iqtisodga o'tishmasa, butun boshli sayyoraning sekinlik bilan tanazzulga yuz tutish xavfi paydo bo'lib boradi degan xulosaga kelish mumkin.

**Foydalanilgan manbalar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. <https://lex.uz/uz/docs>
3. <https://www.unep.org/explore-topics/green-economy/why-does-green-economy-matter>
4. <https://mineconomy.uz/uz/category/view/111>
5. <https://www.greeneconomycoalition.org/news-and-resources/the-5-principles-of-green-economy>
6. <https://yuz.uz/uz/news/anaviy-iqtisodiyotdan-yashil-osish-sari>